



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

MUALLIF USLUBI VA UNING QAYTA YARATILISHI MUAMMOLARI

Juraqulov Quvonchbek Naim o‘g‘li

TDSHU va O‘zJOKU stajyor-o‘qituvchisi

Tel: +998939946461; Email: juraqulovquvonchbekg@mail.com

Annotatsiya.

Ushbu maqola badiiy tarjima jarayonida duch kelinadigan asosiy muammolarni tahlil qiladi. Unda asosan muallif uslubini qayta yaratish, badiiy tasvir va ifoda vositalarining tarjimasi, yaqin tillardagi “soxta ekvivalentlar” hamda frazeologizmlarning talqini kabi masalalar atroflicha yoritilgan. Maqolada tarjimashunos olimlarning fikrlariga tayanilgan holda, badiiy asar tarjimasida nafaqat til bilish, balki ijodkorlik talanti va badiiyat ilmidan xabardor bo‘lishi muhimligi ta’kidlangan. Shuningdek, turk va o‘zbek tillaridagi ba’zi so‘z va iboralar misolida “soxta ekvivalentlar”ning tarjimonda chalkashliklar keltirib chiqarishi hamda frazeologizmlarni tarjima qilishda ularning madaniy xususiyatlarini inobatga olish zarurligi tushuntirilgan. Maqola badiiy tarjimada asl asarning g‘oyaviy-estetik dunyosini va muallif uslubini saqlab qolishning muhimligini ko’rsatib beradi.

Kalit so‘zlari: badiiy tarjima, asliyat matn, tarjima matni, ijodiy yondashuv, turg‘un iboralar, maqol, idioma, aldoqchi so‘zlar, tarjimashunoslik, muallif uslubi.

“Adabiyot – so‘z san’ati hisoblanar ekan, badiiy adabiyotdagi asarlar tarjimasiga nisbatan ham bu izohni qo‘llashimiz mumkin. Chunki tarjima adabiyoti original adabiyotning hosilasi. Bunday asarlar o‘girish uchun til bilishning o‘zi yetmaydi, shuning uchun ijodkorlik talanti va badiiyat ilmidan xabardor bo‘lish ham talab qilanadi. Shuning uchun ham badiiy asarlar tarjimasiga shoir-yozuvchilar yoki ijodiy salohiyat sohibi bo‘lgan kishilargina qo‘l uradilar. Bu bejiz emas. Jahonning buyuk so‘z san’atkorlari tuyg‘u va obrazlar olamini chuqr anglamoq uchun tarjimon o‘zi qalban san’atkor bo‘lmog‘i zarur”¹.

¹ Aznurova E. Badiiy tarjimaning asosiy problemalari. Tarjima san’ati maqolalar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston badiiy adabiyot nashriyoti, 1961. – B. 3.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

“Tarjima o‘z tabiat bilan ham original ijod jarayonidan farq qiladi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asl nusxa matnini yangi til vositasida qayta gavdalantiradi. Tarjimon muallifning g‘oyaviy-estetik dunyosi, kitobxoni rom etgan jozibani yangi o‘quvchilarga yetkazishga bel bog‘lagan kishi. Buning uchun u muallif darajasida predmetni puxta bilishi darkor. Bundan tashqari, muallifning boshqa adiblardan farq qiladigan jihatlari, badiiy uslubini chuqur idrok qilishi lozim”². Muallif uslubini qayta yaratishda duch kelinishi mumkin bo‘lgan muammolarni ajratib ta’rif berdik.

Muallif uslubini qayta yaratishda dush kelinadigan ba’zi muammolar:

- Tarjimada badiiy tasvir va ifoda vositalarinining o‘girilish masalalari.
- Yaqin tillarda “soxta ekvivalent”larning berilishi muammolari.
- Frazeologizmlarning tarjimada talqini muammolari.

Tarjimada badiiy tasvir va ifoda vositalarinining o‘girilish masalalari

Asar tarjimasi jarayonida asliyatdagi badiiylikni tarjima asarga ko‘chirishhaqida gap borar ekan. Avvalo badiiylik nima ekanligiga to‘xtalib o‘tish joiz. “Badiiylik – keng ma’noda san’atning ijtimoiy ongning boshqa shakllaridan farqlanishini ko‘rsatuvchi tushuncha bo‘lib, uning asosida voqelikni obrazlar vositasida aks ettirish yotadi. Badiiyiksiz san’at bo‘lmagani kabi, obrazli aks ettirish bo‘lmasa, badiiylik ham bo‘lmaydi. Tor ma’noda esa u bir san’at asarining estetik jihatdan yuksak saviyasini ifodalaydi, ya’ni asar mazmuniga mutanosib badiiylik elementlarining mujassamlashishini anglatadi. Shuning uchun ham badiiylik masalasini asarning shakliy jihatlari bilan bog‘lab qo‘yish to‘g‘ri emas. Badiiylik asardagi barcha tasvir va ifoda vositalarinining asar mazmuniga mos kelishidan iborat. Bunday mutanosiblik ijodkorning mahorati va ijodiy tajribasi, asar mazmunining g‘oyaviy barkamoliligi, asardagi badiiy haqiqatning mantiqqa mos kelishi bilan bog‘liq”³. Akademik A.Rustamov badiiylik xususida shunday yozadi: “badiiylik deb ataluvchi nutq husni ham so‘zlarning bir-biriga tovush yo ma’no jihatidan yoxud har ikkala jihatdan

² Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – B. 97-98.

³ Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – B. 353.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

munosibligidan vujudga keladi. Bir-biriga munosib so‘zlardan go‘zal ibora va gaplar vujudga keladi. Bir-biriga munosib gaplardan go‘zal fasllar, fasllardan boblar, boblardan kitoblar yaratiladi”⁴. Yuqoridagi gap tilshunos olimning fikri tarjimashunos olimning fikri biroz boshqacharoq bo‘lishi mumkin. Tarjimashunoslikda asarning badiyiliga bevosita aloqador bo‘lgan asar tili, muallif uslubining tarjimada to‘laqonli berilishini o‘rganadi. Tarjimashunos olim G‘aybull Salomov bu haqida quyidagicha fikr bildirganlar: “tabiat tasviri muhim bir voqeа yoki hodisalar ro‘y berishidan oldin ko‘rsatilishining asosiy maqsadi kitobxonning aks ettiryotgan voqeani oldindan o‘z tasavvurida jonlantirishga ko‘mak beradi. Tarjimon esa ana shunday manzarani tarjima tili va uni o‘qiydigan kitobxon yashayotgan mamlakat tabiatni hisobga olgan holda ish tutishi, tarjima qilayotgan asarning mazmun va shakliga zarar yetkazmasdan o‘girishi kerak bo‘ladi”⁵.

Badiylik adabiyotshunoslikda qanchalik darajada muhim omil hisoblansa, tarjimashunoslikda ham shu qadar muhim hisoblanar ekan. Tarjima jarayonida muallif uslubini saqlab qolgan holda asarni tarjima qilish bir chog‘lik qiyin. Buning sabablaridan biri esa til imkoniyatlaridir. Masalan: xitoy tilida o‘zbek tilida bo‘limgan ibora shakllari mavjud. Bu iboralarbi tarjima qilish jarayonida tarjimon juda katta qiyinchiliklarga uchrashi tabiiy holdir. Undan tashqari yuqorida ham aytib o‘tilganidek tarjima qilinyotgan til vakillarining tabiatni jihatidan ham to‘g‘ri kelishi kerak ekan, tabiat tasviri tarjima qilinyotgan bir paytda. Nima uchun bunday tushuncha mavjud? Chunki tarjima qilinyotgan til vakillari uchun begona bo‘lgan narsalarni tarjima qilsa ham, o‘quvchi baribir u tushunchani nimalaigini bilmagan yoki tarjima qilinyotgan tilda u so‘z yoki iboraning qarshiligi bo‘limgan bo‘ladi. Tarjima endi endi boshlangan davrlarda odamlar rostdan ham tabiatida uchramaydigan narsalar haqida ma’lumotga ega bo‘limgan. Birinchi o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlarda Yevropa adabiyotidan tarjima asarlarda ilglizcha isimlar o‘rniga o‘zimizning milliy ismlarni qo‘yib tarjima qilish ham uchragan.

Badiylik faqat shaklda yoki faqat mazmunda emas, balki har ikkalasida namoyon bo‘ladigan hodisadir. Shunday ekan tarjimon badiy asarni tarjima qilar ekan, har

⁴ Rustamov A. So‘z xususida so‘z. – Toshkent: Extremum Press, 2010. – B. 11.

⁵ Salomov G‘. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – B. 86.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

ikkala jihatga ham e'tibor qaratishi kerak bo'ladi. Muallif tabiat tasvisirini juda ham mohirlik bilan tasvirlar ekan, tarjimon bunday badiiylikning yuksak na'munasini tarjima qilishda qiyinchilikka duch keladi, shunday bo'lishiga qaramay u tabiat tasvirini tarjimada aks ettirishi kerak bo'ladi. Chunki tarjimon yozuvchining uslubini to'laqonli tarjimada berishi kerak.

Yaqin tillarda “soxta ekvivalent”larning berilishi muammolari

“Soxta ekvivalent – shaklan bir-biriga aynan o'xshagini bilan mazmunan bir-biridan keskin farq qiladigan so'zlar. Tarjimashunoslikda bu til hodisasi XIX asr oxirlarida ilk bor qayd etilib, XX asr boshlaridan e'tiboran maxsus o'rganila boshlangan. Fransuz lug'atshunoslari M.Kesler va J.Derokini birinchi marta “Inglizcha-fransuzcha tarjimonning aldoqchi do'stlari” degan lug'at tuzgan edilar. Keyinchalik bu til hodisasini ifoda etish uchun boshqa terminlar ham paydo bo'ldi. “Tillararo omonimlar”, “tillararo analogizmlar”, “ohangdosh so'zlar”, “aldoqchi so'zlar” va boshqalar shular jumlasidandir. Ular asosan yaqin tillarda, ba'zan uzoq tillarda ham uchraydi. Masalan, “akademik” so'zi nemis tilida “oliy ma'lumotli kishi”, “talaba”, “oliy maktab o'qituvchisi” va goho “akademik” ma'nolarini anglatsa, rus va o'zbek tillarida asosan “Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi” ma'nosida keladi. Yoki “dramaturg” nemis tilida “rejissyor”, “teatr repertuarining mudiri” ma'nolarida kelsa, bizda “dramatik asar muallifi” ma'nosida keladi. Turkiy tillarda bunday so'zlar ko'p”⁶.

Badiiy tarjimada so'z tanlash masalasi bilan chambarchas bog'liq bo'lган unsur bu soxta ekvivalentlardir. Bunday so'zlar turk va o'zbek tillarida tarjima qilish jarayonida bir qancha muammo tug'diradigan holatdir.

“Ekvivalent – lotincha so'z bo'lib, biror narsaga har jihatdan teng bo'lган, unnig o'rnini bosa oladigan narsa; teng ma'noli, teng qiymatli. Ba'zida kontekst ichidagina bir-biriga mos keladigan, bir-birining o'rnini qoplaydigan so'z va so'z birikmalari ham shartli ravishda ekvivalentlik makomida bo'ladi. Ikki tilda kontekstsiz ham ma'nolari bir-biriga o'xshash bo'lган maqol, matal va iboralar ham ekvivalent birikma deb yuritiladi”⁷.

⁶ Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2014. – B. 57-58.

⁷ Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: TDShI, 2014. – B. 269-270.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

“Fransuz tilida “faux ami”, nemis tilida “falscher freund”, italyan tilida “falso amico”, ispan tilida “falso amigo”, ingliz tilida “false friend” deb nomlangan “soxta ekvivalent” (tarjimonning “soxta” do’stlari) turk tilida “sahte tanış” (soxta tanish), “biçimdeş sözcükler” (shakldosh so‘zlar), “yalancı eşteş” (soxta eshdosh), “yalancı eş değer” (soxta muqobil) kabi turli terminlar bilan atalib kelmoqda. O‘zbek tarjimashunosligida esa bunday birliklar “yolg‘onchi muqobillar”, “aldoqchi so‘zlar”, “tarjimonning soxta do’stlari” kabi terminlar bilan nomlanadi”⁸.

Turkiy tillar tarixan bir til bo‘lgani keyinchalik bir-biridan uzoqlashib ketganligi, madaniyatlarining bir-biriga juda o‘xhash bo‘lgani uchun tillar deyarli bir xil. Shunday bo‘lishiga qaramay tillarda xosta ekvivalentlar juda ham ko‘p uchraydi. Bunga misol tariqasida quyidagi gapni ko‘rishimiz mumkin: “Kenan, İzmir’de annesi, kız kardeşi, Bozyaka’sı, Sem’i dedesiyle beraber bir de masum, ümitsiz çocuk sevdası bırakıyordu. Ushbu gap o‘zbek tiliga quyidagicha o‘girilgan: Kanon Izmirda onasi bilan singlisini, Bo‘yoqasidagi Sam’i dadasini hamda u bilan birga ma’sum, umidsiz bir bolalik muhabbat Layloni qoldirib kelyotgan edi. Tarjima sirtdan qaraganda juda yaxshi amalga oshirilgan ko‘rinadi. Lekin, turkcha “dede” so‘zi o‘zbek tilida “bobo”(buva) bo‘ladi. Tarjimon esa uni “dada” deb o‘girgan. O‘zbekcha “dada” esa turkchada “baba” bo‘ladi. Demak tarjimonga ushbu so‘z pand bergen”⁹. Bunday holat faqatgina so‘zlarda kuzatilmasdan, balki iboralarda ham uchrashi mumkin. Masalan: turk tilidagi bel bağlamak iborasi ishongan odamdan o‘zi uchun yordam berishiga ishonmoq, ishoninb orqasidan ergashmoq ma’noslarini bildiradi. O‘zbek tilida esa “bel bog‘lamoq iborasi shay, tayyor bo‘lmoq, jazm qilmoq”¹⁰ ma’noslarini bildiradi. Tarjimonni bu kabi iboralar chalg‘itishi tabiiy holdir. Lekin ikki tilni ham mukammal biladigan tarjimon bunday xatolikka yo‘l qo‘ymaydi.

Tarjimada soxta ekvivalentlar bo‘lmish tillararo omonimlar bilan birgalikda paronimlar ham tarjimonni noto‘g‘ri tarjima qilishga undaydi. Talaffuzi, eshitilishi va morfem tarkibi bir-biriga o‘xhash bovlib ma’nosи umuman boshqach bo‘lgan so‘zlar hamma tillarda uchraydi. Undan tashqari so‘zlarning asosiy ma’nosini o‘zii

⁸ Hamidov X. O‘zbekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari. – Toshkent, 2014. – B. 158.

⁹ Hamidov X. O‘zbek qissa va romanlari turk tilida. – Toshkent, 2022. – B. 165.

¹⁰ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi. – 1978. – B. 71.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

emas, balki boshqa ma'nolarini ham bilishi kerak. Masalan: turk tilidagi çay so'zining o'zbek tilidagi muqobili choy hisoblanadi, lekin bu so'zning boshqa ma'nosi ham mavjud. O'zbek tilidagi anhor so'zi turk tilidagi çay so'zining boshqa ma'nosiga to'g'ti keladi.

Frazeologizmlarning tarjimada talqini muammolari

Har bir madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadigan maqol va iboralar xalqlarning qadim davrlardan beri o'sha xalq bilan birga shakllanib keladi. Shuning uchun ham maqol va iboralarda xalqning tarixi, turmush tarzi, dunyoqarashi yashiringan bo'ladi. Maqollar va iboralarda milliylik, milliy an'nalar, milliy qadryatlar mavjud bo'ladi. Maqollarni va iboralarni so'zma-so'zma tarjima qilib bo'lmaydi.

"Shunday maqol va matallar borki, ulardan kelib chiqadigan hikmat hijjalab qilinadigan tarjima ichidagi so'zlarda o'z in'ikosini topmaydi. Ana shunday maqol va matallar juda ko'p. Shunday qilib boshqa tillardagi ko'plab maqol, matal va idiomalarda aks etgan hikmatni ularning ona tilimizdagi muqobilillari bilan almashtirish vositasidagina ro'yobga chiqarish mumkin"¹¹.

Turk tili va o'zbek tili bir-biriga yaqin til bo'lgani uchun ba'zi maqollarni so'zma-so'z tarjima qilsa ham ma'no chiqadi, lekin u maqolning o'zbek tilidagi muqobilini topib ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tarjimashunos olim X.Hamidov bunga quyidagi misolni beradi: "Ahsan Batur boshga tushganni ko'z ko'radi maqolini "Adolat manzili" asarini tarjima qilish jarayonida başa düşeni göz görürmüsh shaklida tarjima qilgan. Aslida buni qo'pol xato deb hisoblash ham adolatdan bo'lmaydi, chunki turk kitobxoni gap nima ekanligini darhol fahmlaydi. Shunga qaramay, maqolning turk tilidagi nutqda faol qo'llanilayotgan başa gelen çekilir ekvivalentini ishlatish maqsadga muvofiq bo'lar edi"¹².

Ergash Ochilov bunday turg'un iboralarni quyidagicha tarjima qilish usullari borligi haqida gapirgan: "Frazeologizmlar – turg'un so'z birikmalari: maqol, matal va ibora (idioma)lar. Frazeologizmlar tarjimasida quyidagi usullar qo'llanadi: 1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish; 2) muqobil variant topib qo'yish; 3) frazeologizmni aynan, so'zma-so'z tarjima qilish.

¹¹ Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2014. – B. 140.

¹² Hamidov X. O'zbek qissa va romanlari turk tilida. – Toshkent, 2022. – B. 201-202.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

Har uchala holat ham uchramagan taqdirda tarjimon ularning umumiyligi ma’nosini aks ettirish bilan kifoyalanadi”¹³.

Yuqoridagi usullardan foydalangan holda turg‘un iboralarni tarjima qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu uchala usuldan foydalangan holda ham turk tilidan tarjima qilish mumkin, lekin bularning birinchisi, ya’ni asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent topib tarjima qilish eng samarali usul hisoblanadi. Shunda muallif uslubiga ham katta zarar bermagan holda tarjima qilingan bo‘ladi. Yaqin tillardan tarjima qilganda masalan: turk tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilida turk tiliga tarjima qilish jarayonida bunday birliklarni o‘girish u qadar qiyinchilik tug‘dirmaydi. Buning sababi turg‘un birikmalarning tarixan madaniyatlari, turmush sharoitlari, urf-odatlari, dunyoqarashlari bir bo‘lgan xalqlar bo‘lgani uchundir.

“Xususan, bir oilaga mansub qardosh tillarda bunday bir-biriga har tomonlama mos keladigan ekvivalentlar ko‘p bo‘ladi, chunki ularning grammatik qurilishi va leksik boyligi o‘zaro o‘xshash. Jumladan, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani tarjimasida turk tarjimoni Ahsan Batur o‘zbek tilidagi yuz o‘girmoq iborasi uchun so‘zma-so‘z ekvivalenti mavjud bo‘lgan yüz çevirmek iborasini qo‘llagan”¹⁴. Bu bilan yaqin tillardan tarjimada turg‘un birikmalarni tarjima qilish juda oson deyish ham noo‘rin bo‘ladi. Yuqorida ham aytib o‘tganimizdek soxta ekvivalentlik turguvun iboralarda ham amal qiladi. Ibosalarda ham aldoqchi iboralar bo‘lishi mumkin. Tarjimonni bu holat ham chalg‘itib qo‘yadi.

Muallif uslubini baholab beradigan xususiyatlardan bir bo‘lmish turg‘un iboralar: maqol, matal va iboralardan foydalanish tarjimada aks etmasligi bu yozuvchi uslubini yo‘qqa chiqarish bilan barobardir. Zero, yozuvchi o‘z asarlarida qanchalik ko‘p turg‘un iboralardan foydalansa, u millat tilini, adabiyotini, tarixini va xalqning jonli tilini muakammal bilishini ko‘rsatib beradi. Tarjimon asliyatdagi bunday til birliklariga boy bo‘lgan asarni tarjima qilar ekan tarjima tilining til imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanib tarjima asarni ham asliyatdagi kabi til birliklariga boy asar qilmog‘i lozim. Biz shunday asarlarni bilamiz, tarjimasi asliyatdagi asaridan ham zo‘r chiqqan.

¹³ Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: TDSHi, 2014. – B. 269.

¹⁴O‘sha asar. – B. 118-119.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

Quyidagi gapga e'tibor bering. Ah karşı taraftan bir dönme teklifi geliverse, hiç tereddüt etmez, zararın neresinden dönülürse kardır diyerek, bütün alakasını bir anda kesiverirdi [Kazancı A. Üvey anne. 45-46].

Tarjimasi: Oh, qarshi tarafdan qaytish taklifi kelsaydi, to'y zararini to'lab, barcha aloqani to'xtatgan bo'lardi [Qozonchi A L. Eng sara asarlari. 35]. Tarjima ma'noni chiqarib bergen, lekin ba'zi joylarida xatoliklar mavjud. Bu gapda maqol ishlatilgan, tarjimon esa bu maqolni tarjima qilib ketgan. zararın neresinden dönülürse kardır maqolining ma'nosi zararli bir ish, bir narsaning yo'l ochadigan salbiy ta'siridan qanchalar tezlik bilan voz kechsa, shuncha manfaatli bo'ladi, zararli ishni qilishda davom etmaslik kerak kabi ma'nolarni bildiradi. Asliyatda to'y so'zi va tushunchasi umuman ishtirok etmagan. Bundan tashqari ma'no o'zgarib ketgan, asarning voqealar rivojida to'yning kamchiqim qilib o'tkazish haqida so'z boradi, ya'ni to'yga deyarli xarajat qilinmaydi. Bu esa asarning ma'nosiga putur yetkazishi mumkin. Turg'un birikmalarning tarjima qilinishining uchta usulu hajqda aytib o'tgan edik, lekin bu tarjimada bu uch usulning birortasi ham ishlatilmagan deyishimiz mumkin. Tarjimashunos olim E.Ochilov bu haqida "Tarjima tilida asliyat tilidagi frazeologizmga mos keladigan variant mutlaqo bo'lmasa, u holda frazeologik birlik so'zma-so'z tarjima qilinadi. Muvofiqlikning umuman yo'qligiga asoslangan bunday tarjima kalka usulida tarjima qilish ham deyiladi"¹⁵ deb fikr bildirgan. Bu parchani quyidagicha tarjima qilganda maqsadga muvofiq bo'lar edi: oh! Qarshi tarafdan qaytish taklifi kelganda edi, hech ikkilansmasdan, zararli ishning qayeridan qaytsa ham foydali deb o'sha ondanoq butun aloqalarni uzib yuborgan bo'lar edi. Yuqorida tarjima uchun bergen variantda so'zma-so'z tarjima usuli orqali maqol tarjima tarjima qilindi. Bu asliyatdagi ma'noga yaqin deb hisoblandi.

Xulosa:

Mazkur maqola badiiy tarjima jarayonidagi asosiy muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan o'rGANADI. Unda asosan muallif uslubini tarjimada aks ettirish, badiiy tasvir va ifoda vositalarini o'girish, yaqin tillardagi "soxta ekvivalentlar" va

¹⁵ Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: TDShI, 2014. – B. 121.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

frazeologizmlarning talqini kabi dolzarb masalalarga e'tibor qaratilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, badiiy asar tarjimasi faqat til bilishni emas, balki tarjimondan ijodiy salohiyat, badiiyat ilmidan xabardorlik va muallif dunyoqarashini chuqr anglashni talab qiladi. Ayniqsa, turkiy tillar misolida "soxta ekvivalentlar" va frazeologizmlarning madaniy xususiyatlari tarjima jarayonida jiddiy qiyinchiliklar tug'dirishi hamda tarjimonda ularni to'g'ri idrok etish va muqobilini topish muhimligi ta'kidlangan. Xulosa qilib aytganda, sifatli badiiy tarjima asliyatning g'oyaviy-estetik qiymati va muallif uslubini to'laqonli saqlab qolgan holda, yangi kitobxonlar auditoriyasiga yetkazishni maqsad qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxari:

1. Hamidov X. O'zbek-turk tarjimachiligining dolzarb muammolari. – Toshkent: 2019. – 128 b.
2. Hamidov X. Maqol va idiomalar tarjimasi muammolari. – Toshkent, 2017. 128 b.
3. Hamidov X. O'bekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari. –Toshkent: ToshDSHI, 2014. – 148 b.
4. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2014. – 227 b.
5. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: TDSHI, 2014. – 287 b.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahriri, 1992. – 660 b.
7. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O`qituvchi, 1978. 258 b.
8. Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – 384 b.
9. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O`qituvchi, 1983. 187 b.
10. Salomov G'. Rus tilidan maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. – Toshkent: Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961. – 78 b.
11. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – Toshkent, 1983. – 192 b.
12. Salomov G'. Tarjimon mahorati. – Toshkent: Fan, 1979. – 196 b.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th May, 2025

13. Salomov G‘. Rus tilidan o‘zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalalariga doir. – Toshkent: Fan, 1961. – 201 b.
14. Salomov G‘. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – 169 b.
15. Salomov G‘. Adabiy an’ana va badiiy tarjima. – Toshkent: Fan, 1980. 160 b.
16. Ahmet Lütfi Kazancı. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyatı, 2017. 231 s.
17. Ahmad Lutfi Qozonchi. Eng sara asarlari. – Toshkent: Book Media Nashr, 2020. – 592 b. (Tarjimon: Shahnoza muhammadiyeva)